

HISSIYOTLARNI TUSHUNTIRUVCHI NAZARIY YONDASHUVLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20791693>

Alixonova Yulduz Alisher qizi

Termiz davlat universiteti talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada hissiyotlarni tushuntiruvchi asosiy nazariy yondashuvlar va ularning psixologiya fanidagi o'rnini tahlil qilingan. Hissiyotlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va inson faoliyatiga ta'sirini izohlovchi turli nazariyalar, jumladan, Jeyms-Lange, Kennon-Bard, psixoanalitik, bixevioristik hamda kognitiv yondashuvlarning mazmuni yoritilgan. Shuningdek, hissiyotlarning fiziologik, psixologik va ijtimoiy omillar bilan bog'liqligi ochib berilgan. Tadqiqot davomida turli nazariyalarning o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilinib, ularning hissiy jarayonlarni tushuntirishdagi ahamiyati ko'rsatib berilgan. Maqola hissiyotlar psixologiyasiga oid nazariy bilimlarni tizimlashtirish va ularni zamonaviy ilmiy qarashlar bilan boyitishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar

hissiyot, emotsiya, hissiy jarayonlar, Jeyms-Lange nazariyasi, Kennon-Bard nazariyasi, psixoanaliz, bixeviorizm, kognitiv yondashuv, psixologiya, emotsional holat.

Abstract

This article analyzes the main theoretical approaches to explaining emotions and their place in psychology. The content of various theories explaining the emergence, development and impact of emotions on human activity, including James-Lange, Cannon-Bard, psychoanalytic, behavioral and cognitive approaches, is highlighted. The relationship of emotions with physiological, psychological and social factors is also revealed. During the study, the similarities and differences of various theories are analyzed and their significance in explaining emotional processes is shown. The article serves to systematize theoretical knowledge on the psychology of emotions and enrich them with modern scientific views.

Keywords

emotion, emotion, emotional processes, James-Lange theory, Cannon-Bard theory, psychoanalysis, behaviorism, cognitive approach, psychology, emotional state.

Аннотация

В данной статье анализируются основные теоретические подходы к объяснению эмоций и их место в психологии. Освещено содержание различных теорий, объясняющих возникновение, развитие и влияние эмоций на человеческую деятельность, включая подходы Джеймса-Ланге, Кэннона-Барда, психоаналитический, бихевиористский и когнитивный подходы. Также выявлена связь эмоций с физиологическими, психологическими и социальными факторами. В ходе исследования анализируются сходства и различия различных теорий и показывается их значимость в объяснении эмоциональных процессов. Статья служит для систематизации теоретических знаний по психологии эмоций и их обогащения современными научными взглядами.

Ключевые слова

эмоция, эмоциональные процессы, теория Джеймса-Ланге, теория Кэннона-Барда, психоанализ, бихевиоризм, когнитивный подход, психология, эмоциональное состояние.

Hissiyotlar muammosi psixologiya fanining eng murakkab va ko'p qirrali tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Insonning emotsional hayoti uning bilish jarayonlari, motivatsiyasi, faoliyati va shaxsiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir. Hissiyotlarning kelib chiqishi va namoyon bo'lish mexanizmlarini tushuntirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar natijasida turli nazariy yondashuvlar shakllangan. Ushbu yondashuvlar hissiyotlarning biologik, fiziologik, psixologik va kognitiv asoslarini ochib berishga qaratilgan bo'lib, emotsional jarayonlarni tushunishda muhim nazariy manba vazifasini bajaradi. Shu nuqtai nazardan, hissiyotlarni tushuntiruvchi nazariy yondashuvlarni o'rganish psixologiya fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

B.F. Skinner, behaviorizmning yana bir muhim figurasidan biri bo'lib, u operant shartlanish nazariyasini ishlab chiqqan. Skinnerning fikriga ko'ra, odamlarning xulq atvori va hissiyotlari, asosan, muhitdan kelgan mukofotlar yoki jazolar orqali shakllanadi. Skinner uchun, insonning xulq-atvori va hissiyotlari tashqi ta'sirlar (stimullarga qarshi javoblar)ning natijasidir. Skinnerning nazariyasiga ko'ra, xulq atvor (shu jumladan hissiyotlar) operant shartlanish orqali o'rganiladi. Bu, organizmning o'z xatti-harakatlariga asoslangan ta'sirni (yaxshi yoki yomon) ko'rish va unga mos ravishda javob berishga qarab rivojlanadi.

Masalan, agar bola yaxshi xulq-atvorni namoyish qilsa va unga mukofot berilsa, bu xulq-atvorni takrorlash ehtimoli oshadi. Aksincha, agar yomon xulq-atvor jazolansa, u kamayadi. Uatson va Skinnerning nazariyalariga ko'ra, hissiyotlar biologik yoki psixologik emas, balki xulq-atvor va o'rgatish jarayonlari

natijasida shakllanadi. Hissiyotlar va xulq-atvor, tashqi muhitning ta'siri va stimullar orqali o'rganiladi. Uatson, hissiyotlarni shartli refleks sifatida ko'rsatsa, Skinner bu hissiyotlarni mukofotlar yoki jazolar orqali o'rganilgan xatti-harakatlar sifatida tushuntirgan.

So'nggi yillarda P.Ekman va R.Lazarus kabi ilmiy tadqiqotchilar hissiyotlarning neyrobiologik va ijtimoiy jihatlariga yanada chuqurroq qarashgan. P.Ekman, masalan, universaldagi ba'zi hissiyotlarni aniqlashga muvaffaq bo'lgan (masalan, baxt, qasddan, qo'rquv, g'azab).

Odam tashqi muhitdagi turli-tuman narsa va hodisalarni idrok qilar ekan, hech vaqt bu narsalarga batamom befarq bo'lmaydi. Odamning aks ettirish jarayoni doimo faol xarakterga egadir. Aks ettirish jarayoni quyidagilarni qamrab oladi:

a) shaxsning ehtiyojni qondirish imkoniyatiga egaligini:

b) qondirishga yordam beradigan yoki qarshilik ko'rsatadigan obyektlarga subyekt sifatida qatnashishi;

v) uni harakat qildiruvchi bilimga intiltiruvchi munosabatlar va hokazo. Chunki odam atrofidagi har turli narsalarni idrok qilib aks ettirar ekan, bu narsalarga nisbatan malum munosabatda boladi. Masalan, bizga ayrim narsalar yoqsa, ya'ni kayfiyatimizni ko'tarib yuborsa. boshqa bir narsalar yoqmaydi va kayfiyatimizni buzib, dilimizni xira qiladi. Ba'zi bir ovqatni odam juda ham yoqtiradi. Kishilar idrok qilayotgan, ko'rayotgan, eshitayotgan, bajarayotgan. o'ylayotgan, orzu qiladigan narsalarga befarq bo'lmaydilar. Bir xil predmetlar, shaxslar, xarakterlar, voqealar bizni quvontiradi, boshqalari xafa qiladi yana boshqalari g'azab. nafratimizni uyg'o- tadi. Biz xavf ostida qolganimizda qo'rquvni his qilamiz, dushman ustidan g'alaba qozonish yoki qiyinchilikni yengish zavq uyg'otadi. Hissiyot tushunchasiga adabiyotlarda turlicha ta'riflar uchraydi jumladan: A.V. Petrovskiy tahriri ostida chiqqan "Umumiy psixologiya" darsligida hissiyot - kishining o'z hayotida nimalar yuz berayotganiga nimalarni bilib olayotganiga yoki nima bilan mashg'ul bo'layotganiga nisbatan o'zicha turli xil shaklda bildiradigan kichik munosabatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ekman P. *Emotions Revealed: Recognizing Faces and Feelings to Improve Communication and Emotional Life*. – New York: Times Books, 2003.
2. Lazarus R. S. *Emotion and Adaptation*. – New York: Oxford University Press, 1991.
3. Petrovskiy A. V. *Umumiy psixologiya*. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.

4. Skinner B. F. *Science and Human Behavior*. – New York: Macmillan, 1953.
5. Uotson J. B. *Behaviorism*. – New York: W.W. Norton & Company, 1930.
6. G'oziev E. G. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
7. Davletshin M. G., Do'stmuhamedova Sh. A., Mavlonov M. M. Yosh va pedagogik psixologiya. – Toshkent: TDPU, 2014.
8. Nemov R. S. Psixologiya. 1-kitob. – Moskva: Vlados, 2016.
9. Rubinshteyn S. L. Umumiy psixologiya asoslari. – Sankt-Peterburg: Piter, 2019.